ABU ALI IBN SINO T’ALIMOTINING ZAMONAVIY PEDAGOGIK METODIKALARDAGI O’RNI VA NAZARIY ASOSLARI

[a]S.X. Tojiboyeva
[a]Qo’qon D.P.U Tabiiy fanlar va iqtisodityot fakulteti Biologiya kafedrasi o’qituvchisi

[b]G.A.Zokirjonova
[b]Qo’qon D.P.U Tabiiy fanlar va iqtisodityot fakulteti Biologiya yo’nalishi I-bosqich talabasi

Annotatsiya
Mazkur maqola mutafakkir Abu Ali ibn Sino tomonida yaratilgan ta’limotlar va g‘oyalaridan biologiya darslarida foydalanish va pedagogik muhit, ta`lim vositalarini aniqlashtirish, tahlil qilish, samarali mexanizmlarni joriy etish va o‘qitish metodikasini takomillashtirish haqida bayon etilgan. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining biologiya fani darsliklari mazmunida Abu Ali ibn Sino ta’limotlarining singdirilishi bo‘yicha tadqiqotlar tahlili va uning natijalari qayd etilgan. Shuningdek, fanlarni o‘qitish metodikasiga oid muammolar va ushbu muammo yuzasidan qator olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqot ishlari natijalari, uning mazmuni hamda mohiyati yoritilgan.

Kalit so`zlar: *biologiya, darslar, mutafakkir Abu Ali ibn Sino, ta’limotlar, g‘oyalar, pedagogik muhit, vositalar, tahlillar, o‘qitish metodikasi.*

KIRISH

Dunyoda axborot oqimi keng ko‘lamni qamrab olmoqda. Ularni ilmiy, nazariy-amaliy tahlil etish, ma’lumotlarni qayta ishlash, umumlashtirish, tezkor sur’atlarda qabul qilish, xulosalash va o‘quvchilarga yetkazib berish yo‘llarini aniqlash kabilar pedagogika sohasining vazifalari sanaladi. Hozirda ta’lim tizimi faoliyatini takomillashtirish va ilg‘or xalqro tajribalarni tadbiq qilish bilan bog‘liq masalalar dolzarb hisoblanmoqda. Maktab o‘quvchilarining biologiyaga oid bilimlarini rivojlantirish, ular o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirishni ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqishni taqozo etadi. Biologiya darslarida mutafakkir Abu Ali ibn Sino tomonida yaratilgan ta’limotlar, g‘oyalardan foydalanish va pedagogik muhitni, uning vositalarini aniqlashtirish, tahlil qilishning samarali mexanizmlarini joriy etish va o‘qitish metodikasini takomillashtirish dolzarb muammolar sirasiga kiradi.

Tadqiqotlar tahliliga ko`ra, fanlarni o‘qitish metodikasiga oid muammolar turli fanlar doirasida ilmiy-tadqiqot muammosi ekanligini ko‘rsatdi. Ushbu muammo yuzasidan qator olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqot ishlarida fanlarni o‘qitish metodikasining mazmun va mohiyati izohlangan. Xususan, pedagog olimlardan M.X.To‘xtaxo‘jayeva, S.Ashirboyev, J.Hasanboyev, S.Nishonova, S.Madiyarova, A.Qoldibekova, M.Usmonboyeva hamda N.Nishonovalarning fikriga ko‘ra, ta’lim metodikasi – bu xususiy didaktika yoki ta’limning xususiy nazariyasini o‘zida namoyon etadigan pedagogika fanining tarmog‘i va uning vazifalari o‘quv fani

yuzasidan ta’lim berish hodisasini o‘rganish jarayonida ularning orasidagi qonuniy aloqalarni ochishdan, anglangan qonuniyatlar asosida pedagogning ta’lim faoliyatiga va tarbiyalanuvchining anglash, biluvchanlik faoliyatiga talablar me’yorini o‘rnatishdan iboratdir. Metodika (fan sifatida) – bu xususiy fanlarni o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganishdir [3].

ADABIYOTLAR TAHLILI

O‘zbekistonda O‘rta Osiyo allomalarining ma’naviy-ma’rifiy ta’limotlari, qator asarlari atoqli sharqshunos olimlar tomonidan, jumladan, A.Irisov, U.Karimovlar tarjima qilingan bo‘lib, jumladan, Abu Ali ibn Sino ilmiy merosining asosiy tadqiqotchisi va tarjimoni sifatida tanilgan akademik U.I.Karimovning tadqiqotlari alohida ahamiyatga ega. Tahlillar davomida olim tomonidan Ibn Sino “Tib qonunlari” asarining o‘zbek va rus tillaridagi to‘liq nashrini tayyorlaganini va tarjima qilishda qatnashganligi to‘g‘risidagi qator manbalar mavjud. Sharqshunos olim A.Irisov manbalarda qayd etishicha, Ibn Sino “O‘z shaxsiga e’tiborli kishigina o‘zini axloqiy fazilatlar bilan bezantirishi mumkin. Axloqsizlik nafaqat oila va jamiyatga, balki o‘ziga e’tiborsizlik, o‘zini hurmat qilmaslikdir. Fazilatlarga esa ularga ega bo‘lish yo‘lini bilish orqali erishiladi” [4]. Ibn Sinoning yozishicha, axloq falsafaning amaliy qismiga oid bo‘lgani bilan u o‘z-o‘zidan ro‘yobga chiqmaydi, balki aqlning boshqaruviga bog‘liqdir.

O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar, xususan, falsafa fani taraqqiyotiga yirik hissa qo‘shgan zabardast olimlardan M.Xayrullayev, J.Tulenovlar Markaziy Osiyo mutafakkirlari merosini tadqiq etgan va yuksak madaniy merosning qonuniy vorislari ekanligimizni keng ilmiy jamoatchilik oldida atroflicha acoclab bergan. Jumladan, M.Xayrullayevning ta’kidlashicha, Ibn Sinoning falsafiy qarashlarida inson va borliqni ayri-ayri holda emas, balki o‘zaro chambarchas bog‘liqligini hisobga olgan holda tadqiq etish, shaxsning aqliy xislatlarini, qobiliyatlarini o‘rganish va fazilatlarini ochib berishga intilish asosiy o‘rin egallaydi. Shuningdek, axloqshunoslik ham falsafaning bir qismi bo‘lib, barcha davr mutafakkirlari kabi Ibn Sino ham bu borada samarali ijod qilganligi to‘g‘risida ham qayd etadi [6].

O‘rta Osiyo allomalarining hayoti, faoliyati, ilmiy bilimlarning turli sohalari bo‘yicha ilgari surilgan farazlari, ularning ilmiy echimlari, ma’naviy-ma’rifiy merosning insoniyat sivilizatsiyasidagi o‘rni va roli, tarixiy taraqqiyotga ko‘rsatgan ta’siri, bugungi kundagi ahamiyati kabi masalalar pedagog olimlar tomonidan ham tadqiq etilgan. Xususan, E.O.Turdiqulov, H.Homidov va M.M.Aliqulovalarning tadqiqotlarida O‘rta Osiyo allomalarining ma’naviy-ma’rifiy qarashlari, xususan, mavjud olamning insoniyat hayotidagi o‘rni, ijtimoiy munosabatlarni tashkil etishdagi ahamiyati, insonning borliq va tabiatga, shuningdek, atrof-muhitga munosabati, muhim geografik obyektlar, ularning xususiyatlari, borliqdagi unsurlarning o‘zaro uzviy bog‘liqligi, tabiiy hodisalar, ular yashab o‘tgan davrlardagi holati va boshqa masalalar aks ettirilgan.

So`ngi yillarda ta’lim muassasalarida biologiya fanini o‘qitish metodikalarini takomillashtirish doirasida bir guruh tadqiqotchi-olimlar izlanishlar olib borgan. Chunonchi, biologiya ta’limida interaktiv dasturiy vositalardan foydalanish metodikasini takomillashtirish masalalari bo‘yicha izlanishlar olib borgan olimlardan

G.S.Ergasheva, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida biologiya fanini o‘qitishda elektron ta’limiy resurslardan foydalanishning metodik xususiyatlarini o‘rgangan L.M.Qaraxonova va Sh.B.Asanovalarning tadqiqotlarida biologiya fanini o‘qitishda o‘quvchilarda tayanch va fanga doir xususiy kompetensiyalarni shakllantirish integrativ yondashuv, elektron ta’lim resurslaridan foydalanish kabi metodikalarni takomillashtirishga e’tibor qaratadi.

Tadqiqot ishining o‘ziga xos jihati umumiy o‘rta ta’lim maktablari 10-11-sinf o‘quvchilariga biologiyaga oid bilimlarni berishda O‘rta Osiyo allomasi Abu Ali ibn Sino merosidan, uning ta’limotlaridan foydalanishning pedagogik metodikalarini aniqlashdan iboratligidir. Xususan, “metodika” tushunchasini ham izohlash zarur. Metodika – ma’lum bir ishni bajarish uchun zarur bo‘ladigan metod va usullar yig‘indisidir. Bir qator izohli lug‘atlarda, “Metodika (yun. methodike) – qat’iy ketma-ketlikka (algoritmik xarakterga), ilgari o‘rnatilgan reja (qoida), tizimga aniq rioya qilish bo‘lib, biror bir ishni maqsadga muvofiq o‘tkazish metodlari, yo‘llari majmuasi” - deb, ifodalangan [3].

Rossiyalik pedagog olimlardan A.M.Stolyarenkoning fikricha, o‘quv fanlarini o‘qitish metodikasi metodika ma’lum bir pedagogik vazifalarni hal etish bilan bog‘liq metod, metodik usullar, vosita va tashkiliy chora-tadbirlar majmuidir. G.M.Kodjaspirova va A.Yu.Kodjaspirovlar metodikani quyidagicha izohlagan: O‘qitish metodikasi pedagogik faoliyatni amalga oshirishning aniq usullari, uslublari va texnikasidir.

Yuqorida bildirilgan fikrlar, bizgacha olib borilgan tadqiqotlar tahlili natijasida metodika tushunchasiga quyidagicha mualliflik ta’rifi berildi. “Metodika – o‘quv fanini o‘qitish metodikasini oqilona tashkil etish, ta’lim va tarbiyaviy faoliyat shakllarini to‘g‘ri belgilash, metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay bilish, ta’lim texnolgiyalarini samarali qo‘llash demakdir” [5].


Asosiy qism. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining biologiya fani darsliklari mazmunida Abu Ali ibn Sino ta’limotlarining singdirilishi bo‘yicha tahlil ishlari natijasda quyidagi mavjud holat aniqlandi:

11-sinf Biologiya fani darsligi (Mualliflar: A.G‘afurov, A.Abdukarimov, J.Tolipova, O.Ishankulov, M.Umaralieva, I.Abduraxmonova. – Toshkent: «SHARQ», 2018. – 240 b.) [2]. 2-§. Ekologiyaning rivojlanishi, bo‘limlari va metodlari – darslikning 9 betida: Ibn Sino asarlarida Erning tuzilishi, dorivor o‘simliklar, hayvonlarning yashash joylari haqida ma’lumotlar berilgan.

10-sinf Biologiya fani darsligi (Tuzuvchilar: K.Saparov, I.Azimov, M.Umaraliyeva, U.Raxmatov, Z.Tillayeva, I.Abduraxmanova, E.Ochilov, S.Haytbayeva, L.Uralova. – T.: Respublika ta’lim markazi, 2022. – 200 b.) [1]. Darslik mazmunida Abu Ali ibn Sino ta’limotlari mavjud emas.

Biologiya darsliklari mazmunini Abu Ali ibn Sino ta’limotlaridan foydalanish bo‘yicha o‘quv fan darsliklariing tahlili natijasida qator taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining bilogiya fani darslarida o‘quvchilarga Abu Ali ibn Sino ta’limotlari asosida integratsiyalashgan ta’lim-tarbiyaning amalga oshirilishi ularning shaxs va sub’ekt sifatida shakllanishi, aqliy rivojlanishi, tarbiyalanganlik darajasining o‘sishiga zamin yaratadi.

Abu Ali ibn Sino ta’limotlari asosida biologiya fanlarini o‘qitish metodikasini takomillashtirish tadqiqotida maqsadning qo‘yilishi, jarayonning tashkil etilishi va natijaning aniqlanishi ishlab chiqilgan model asosiy negiz va omillarni o‘zida birlashtirgan (1-rasm).



1-rasm. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida biologiya fanlarini Abu Ali ibn Sino ta’limotlari asosida o‘qitish metodikasini takomillashtirish modeli

Ushbu model – ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishda muammoning o‘rganilishi, umumiy dolzarb maqsadga yo‘naltirilgan xolda bosqichma-bosqich ta’lim natijalariga erishish va yaxlit bir butun holatda pedagogik jarayondagi faoliyatni yuritish, nazorat qilish imkoniyatidan foydalangan holda yaxlit maqsadli natijaga erishishdan iborat. Model asosida ta’lim jarayonida bilim, ko‘nikma va malakalarni egallash, amaliy faoliyat samaradorligini oshirish, Abu Ali ibn Sino ta’limotlari asosida biologiya fanlarini o‘qitish metodikasini takomillashtirishning didaktik tuzilmalari ishlab chiqildi [5].

Biologiya fanlarini mutafakkir Abu Ali ibn Sino ta’limotlari asosida o‘qitish va o‘quv jarayonida keng doiradagi muammolarni aniqlash, tahlil qilish, Markaziy Osiyo xalqlari madaniyatini O‘rta asr sharoitida dunyo madaniyatining oldingi qatoriga olib chiqqan buyuk mutafakkir Abu Ali ibn Sino ta’limotlari asosida nazariy jihatdan boyitishning pedagogik shart-sharoitlari o‘rganib chiqilgan.

O‘quvchilarni biologiya darslari jarayonida qadriyatlarni, an’anlarni, tariximizni, buyuk ma’naviy va moddiy, madaniy merosimizni asrashda konservativ, biroq jamiyatning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishida Abu Ali ibn Sinoning ilmiy merosidan, ta’limotidan foydalanib o‘qitish samarali va amaliy natija kasb etishi borasida ilmiy fikrlar bayon etilgan.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining biologiya fani darslari mazmunini takomillashtirishda muntazam sur’atda Abu Ali ibn Sino asarlariga murojaat etish mutafakkir ta’limotining ta’lim, mazkur fan taraqqiyotida beqiyos amaliy ahamiyatga ega. Milliy ma’naviyatimiz, ta’limiy qadriyatlarimiz asosida o‘quvchi-yoshlar bilimlarini rivojlantirishlarida, to‘g‘ri va to‘laqonli ta’lim olishlarini ta’minlashda ta’lim va tarbiya tizimi, jamoat tashkilotlarining roli muhimdir.

XULOSA

Mamlakatimizda yosh avlod kamoloti uchun yaratilgan barcha imkoniyatlarni va yaratilgan ta’lim vositalarini yetkazish lozim. Xususan, ular:

Birinchidan: biologiya darslari mavzular bo‘yicha mutafakkirning tabiat va inson salomatligiga oid qarashlarini o‘quvchilarga yetkazib berishda integratsion (gumanitar fanlar, geografiya, biologiya) ta’lim asosida yondashish ijobiy natijalarni beradi.

Ikkinchidan, o‘quvchilarga biologiyaga doir bilimlarni berish jarayonida, mamlakatimizda yangi rivojlanish bosqichida tabiatni asrash, flora va faunani saqlash va uning inson salomatligi uchun ahmiyatga molik ishlardan misollar keltirish maqsadga muvofiq.

Uchinchidan, biologiya darslarida Abu Ali ibn Sino asarlari namunalarini o‘quvchilarga ko‘rsatish, namoyish etish, alloma ijodiga doir ko‘rgazmali material, plakat, o‘quv va hujjatli filmlardan foydalanish o‘quvchilarning biologiya fani darsiga bo‘lgan qiziqishini kuchaytiradi.

To‘rtinchidan, Abu Ali ibn Sinoning “Tib qonunlari” asarining butun dunyoga mashhurligi, jahondagi yetakchi universitetlarda darslik sifatida foydalanib kelinayotganligini ta’kidlash o‘quvchilarda vatanparvarlik va g‘urur hisini kuchaytiradi, kelajakda ilm fan bilan shug‘ullanishga undaydi.

Beshinchidan, o‘quvchi uchun muhim bo‘lgan inson salomatligi ya’ni, uning ijtimoiy iqtisodiy hayotdagi faolligini ta’minlovchi asosiy omillardan biri ekanligini

buyuk mutafakkir Abu Ali ibn Sino fikrlari asosida tushuntirilishi ularning biologiya faniga bo‘lgan qiziqishini orttiradi va o‘quvchilarning fan bo‘yicha o‘zlashtirishini yaxshilaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Biologiya: Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 10-sinfi uchun darslik: Tuzuvchilar: K.Saparov, I.Azimov, M.Umaraliyeva, U.Raxmatov, Z.Tillayeva, I.Abduraxmanova, E.Ochilov, S.Haytbayeva, L.Uralova. – T.: Respublika ta’lim markazi, 2022. – 200 b.

2. Biologiya: Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 11-sinfi uchun darslik: 1-nashr /Mualliflar: A.G‘afurov, A.Abdukarimov, J.Tolipova va.b. –T.: Sharq, 2018. – 240 b.

3. Murtozayeva M.M. Umumiy pedagogika: darslik. – T.: Zuxro baraka biznes, 2025. – 360 b.

4. Tojiboyeva S. Methods Using Great Thinkers’ Teachings about Nature and Human Health at Biology Lessons. Eastern european Scientific Journal. (ISSN 2199-7977), DOI 10.12851/EESJ201901. Germany №01. 2019. – P. 379-384.

5. Tojiboyeva S.H. Biologiya darslari jarayonida Abu Ali ibn Sino ta’limotidan foydalanishning pedagogik texnologiyalari. Uslubiy qo‘llanma. Adabiyot uchqunlari, – Qo‘qon: 2020 y. – 75 b.

6. Xayrullayev M.M. Abu Ali ibn Sino / Ma’naviyat yulduzlari: (Markaziy Osiyolik mashhur siymolar, allomalar, adiblar) // To‘plovchi va mas’ul muharrir: M.M.Xayrullayev. – To‘ldirilgan qayta nashr. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashr, 2001. – 103 b.